


## Kichik biznes va xususiy tadbirkor

Joriy yilning yanvar – dekabrda 1228 tadan ortiq kichik biznes (dehqon va fermer xo`jaliklarisiz) sub`ektlari tashkil etildi yoki 2016 yilning shu davriga nisbatan 142,3 foizga ko`paydi. Eng ko`p kichik biznes sub`ektlari qishloq, o`rmon va baliq xo`ja-ligida (23,6 foiz) , sanoat tarmog`ida (22,6 %), savdo sohasida (17,5%), va yashash va ovqatlanish bo`yicha (12,0%) tashkil etilgan.



### 2017 yilning yanvar–dekabrda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan:

– 671,5 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 22,2 foizi) o`zlashtirildi va 2016 yilning yanvar–dekabrda nisbatan o`shirish sur`ati 107,6 foizni tashkil etdi;



– 969,2 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 75,4 foizi) bajarildi va 2016 yilning yanvar–sentyabriga nisbatan o`shish sur`ati 103,7 foizga ko`paydi;



- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2460,9 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 18,8 foizi) yoki 2016 yilning yanvar–sentyabriga nisbatan o`shish sur`ati 100,3 foizni tashkil etdi;



2042,0 mlrd.so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (viloyat jami xizmatlar xajmining 67,3 foizi), 2016 yilning yanvar–sentyabriga nisbatan 102,0 foizni tashkil etdi;

– chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 94,2 foizi yoki 4090,1 mlrd. so`mi (o`shish sur`ati 100,3 foiz) shakllantirildi;

–60,4 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 20,0 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, 85,3 mln. AQSh dollari (umumiy import hajmining 18,3 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi;



– avtomobil transporti yuk aylanmasining 4,6 foizga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 41,8 foizi), yo`lovchi aylanmasining esa 2,6 foizga (umumiy yo`lovchi aylanmasining 82,0 foizi) ko`payishi ta`minlandi;

2017 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subektlari tomonidan;

– 254,5 ming nafar kishining bandligi ta`minlandi (jami iqtisodiyotda band bo`lganlarning 60,3 foizi), shu jumladan band bo`lganlarning 206,9 ming nafari yakka tartibdagi tadbirkorlar, 47,6 ming nafari kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri keldi.





investitsiyalar 24,1 foizga, sanoatda 18,8 foizga, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 98,7 foizga, qurilishda – 75,4 foizga, chakana tovar aylanmasida 94,2 foizga, xizmatlar sohasida – 67,3 foizga, eksportda – 20,4 foizga o`sgan.

### **Hududlar bo`yicha yanvar–sentyabrda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi**

2017 yilning yanvar–sentyabrda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yaHMDagi ulushi Navoiy viloyatida bu ko`rsatkich 40,3 foizni tashkil etdi.



**Hududlar bo`yicha yanvar–dekabrda kichik biznes va xususiy  
tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi**

*Foizda*

	<i>Yillarda</i>		<i>O'zgarish (+;-), f.b.</i>
	<b>2016 y.</b>	<b>2017 y.</b>	
Navoiy viloyati	37,6	40,3	-0,5

**Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni  
rivojlantirish tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi**

Mas`ul: **Qo'ldoshova M.**

(871) 230-84-50